

## JAMIYATDAGI IJTIMOY-SIYOSIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIYASI.

**Mavlonova Nilufar Oybek qizi**

Osiyo Xalqaro Universiteti

Tarix va filologiya kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10558940>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashda qanday metodlardan foydalanishimiz, nimalarga alohida ahamiyat berishimiz mumkinligi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, barqarorlik, milliy model, millat, davlat, ijtimoiy mas'uliyat.

### THE METHODOLOGY OF ENSURING SOCIO-POLITICAL STABILITY IN SOCIETY.

*Abstract.* This article reflects on what methods we can use to ensure social and political stability in society, what we can attach special importance to.

**Key words:** society, sustainability, national model, nation, state, social responsibility.

### МЕТОДИКА ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В ОБЩЕСТВЕ.

*Аннотация.* В данной статье рассматривается, какие методы мы можем использовать для обеспечения социальной и политической стабильности в обществе, чему мы можем придать особое значение.

**Ключевые слова:** общество, стабильность, национальная модель, нация, государство, социальная ответственность.

Mustaqillik yillarda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash jarayonlari xalqimizning ijtimoiy yaratuvchanlik muhiti bilan bog'liq kechgan. Chunki, "O'zbek moduli" da belgilangan tamoyillarning ijtimoiy hayotdagi natijalari bevosita yaratuvchanlik omili bilan bog'liq bo'ldi. O'ttiz yil mobaynida xalqimizning ongida ezgulik tamoyili asosida jamoyatimizda barqarorlik muhiti yuzaga kelmoqda. Jamiyatimiz iqtisodiy negizi yagona kommunistik g'oya ta'siridan xalos etilib, iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi ta'minlanganligi iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlarning muhim omili bo'lib xizmat qilgan. Bu demokratik jamiyat qurish jarayonlari rivojlanishi to'g'risidagi qarashlarning yangicha ilmiy asoslarga qo'yishni taqozo etgan shart-sharoit va omillarni tanlash, davr va zamon o'zgarishlari hamda yangicha talablardan kelib chiqqan holda to'g'ri tushunishga olib keldi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

"Barqarorlik" tushunchasi o'z ichki tuzilmasi, tarixiy, tabiatiga ko'ra murakkab tuzilmaga ega. Bu tushunchaning tarixiy mazmuni bilan tanishsak;

"O'zbek tilining izohli lug'ati" kitobida "barqaror" so'zi uch xil tahlil qilinadi: "[Bar..+qaror] 1. Qaror topgan, qat'iy, uzil-kesil o'rnashgan; ustuvor. 2. Hech qanday o'zgarish ta'sir etmaydigan, doim birdek turadigan, o'zgarmas. 3. Bir yerda o'rnashib qolgan; muqim. Shuningdek, mazkur lug'atda "turg'unlik", "mustahkamlik", "o'zgamas holat", "barqarorlikka erishmoq", "Davlat siyosatining barqarorligi" tarzida ta'rif berilgan.

Taraqqiy etgan zamonamiz bosqichiga kelib, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash insondagi sotsiokreativ hatto nizo va urushlar paytida ham to'xtamasdan haqiqiy ijodkor, chin bunyodkor

sifatida o'zligini namoyon qilishga zaruriyatini kuchaytirgan. Natijada insonlar, davlatlar o'rtasida raqobat muhiti vujudga kelmoqda. Ijtimoiy mas'uliyat borasidagi qarashlar bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanish, borgan sari buni tushunish, anglash va amal qilishning immanent xususiyatlarida farqlanish sodir bo'ldi.

Shu bilan birga, bugungi tahlikali zamonda davlatlarning, butun insoniyatning tinch va osoyishta yashash tarzini o'rganish, ularning mental xususiyatlarini tadqiq etish dunyo ilmiy jamoatchiligi o'rtasida yagona konsensusga asoslangan "yangi metodologiyani" ishlab chiqish zaruriyati paydo bo'lgan. Bu "Inson manfaatlarini ta'minlash uchun esa, avvalo, odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari va hayotiy muammolarini, ehtiyojlarini yaxshi bilishga xizmat etadi".

Shu sababli, tinchlik va barqarorlik holatini tahlil etish ko'pgina xalqaro tashkilotlar tomonidan dunyo davlatlari tinchlik va barqarorligini obyektivlik asosida tahlil etish, ularning o'lchov mezonlarini yaratishda bir qator omillarni e'tiborga olish maqsadimizga muvofiq.

Birinchidan, deprivatsiya (qoniqmaslik) holati. Bunda aholi aksariyat qismining amaldagi islohotlardan qoniqish yoki qoniqmasligi, olib borilayotgan islohotlarda ishonchsizlik kayfiyatining mavjudligi hamda ijobiy istiqbol kabi omillar tinchlik va barqarorlik darajasi uchun muhim hisoblangan.

Ikkinchidan, fuqarolarning boshqaruv tizimida bir-biriga bo'lgan munosabati. Bunda fuqaro va boshqaruv tizimi o'rtasidagi o'zaro qo'llab-quvvatlash, fuqarolar xohish-istaklarining qondirilishi hamda boshqaruvdagi yuksak kompetentlik darajasi kabi mezonlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Uchinchidan, jahon hamjamiyati bilan (ijobiy yoki salbiy) munosabatlar. Birinchi navbatda, yaqin qo'shni davlatlar bilan aloqalarning kesishi, munosabatlarning ko'p o'lchamga egaligi (savdo - iqtisodiy, madaniy), xalqaro tashkilotlar ishtiroki, davlat tashabbuslarining qondirilishi kabilardir.

To'rtinchidan, harbiy salohiyati. Asosan, samarali xavfsizlik strategiyasining ishlab chiqilganligi, shaxsiy tarkibning tayyorgarlik holati, zamonaviy qurol-yarog' (aviatsiya, havo mudofaa tizimlari, zirhli transport vositalari, zamonaviy dvigatellar, raketalarining mavjudligidir).

Beshinchidan, davlat-biznes va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi aloqadorlik. Bunda davlat tomonidan ikkala sektorni rivojlantirish borasidagi imkoniyatlar va ularning faoliyatiga aholi tomonidan ishonchli munosabat, biznesda milliy ma'naviyatning o'rni aholining xarid qobiliyati darajasi kabi omillarning o'rni beqiyosdir.

Mamlakatimiz mustaqilik erishganing dastlabki yillaridayoq tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning milliy modelini shakllantirdi, millatlararo totuvlik, birlik va hamkorlikni mustahkamlashni o'zining strategik maqsadiga aylantirgan.

O'zbekistonning ichki va tashqi tinchlikni, barqarorlikni asrash borasidagi siyosati: 1) milliy manfaatlar ustuvorligi; 2) boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; 3) o'zaro foydali integratsiya tamoyillariga asoslangan. Milliy manfaatlar negizida yurtimizda demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish, tinchlik va barqarorlikka asoslangan sotsiokreativ muhit yaratish, millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, xalq bilan bevosita munosabatlarni yo'lga qo'yish yotgan. Bugungi kunda O'zbekiston xalqi davlat hokimiyatining yagona manbai ekanligiga, mamlakatdagi vaziyat ahvol va taraqqiyot jarayonlari uning ijtimoiy faolligi mahsuli

ekaniga iqror bo'lgan. O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati xalqni, barcha millat va elat vakillarini mamlakatdagi islohotlarning faol subyektlariga aylantirishga, tinchlik va barqarorlik barcha fuqarolarning ijtimoiy burchi, vazifasi, orzu-istaklarining mahsuli ekanligini anglab yetishga imkon yaratdi. O'zbekiston mustaqil davlat xalqaro munosabatlarning faol muallifi, subyekti sifatida jahon hamjamiyati hayotiga, ayniqsa, dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga munosib hissa qo'shmoqda.

Darhaqiqat, barqarorlik yaxlit siyosiy, iqtisodiy, psixologik, sotsiologik, huquqiy, harbiy, tibbiy, biologik, texnik singari har bir fan o'z sohasi, o'z doirasida, unga ta'rif berishi mumkin. Ammo ularni birlashtiruvchi yagona va muhim halqa, bu tizimning funksional holatini (ishchanligini) saqlab turish, qayta tiklay olish qobiliyatining mavjudligi jihatidan u global falsafiy ma'no kasb etadi".

Jamiyatda barqarorlik beqarorlik bilan, inqiroz gullab-yashnash bilan almashib turishi tabiiy. Buni taraqqiyot mohiyati taqozo etadi. Ammo unga mutlaq o'zgarimas konstant deb qarash noo'rindir. Zero, borliq ulkan muvozanat asosiga shakllangan, buni asrash esa Inson intellekti va ma'naviyatiga havola qilingandir.

Jamiyatning ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalarida muayyan yutuqlarga erishilgach ijtimoiy imkoniyatlar ro'yobga chiqarilgach, uning bundan keyingi taraqqiyoti yo'lida yangi muammolar tug'iladi, ularni hal etish vazifasi paydo bo'ladi. Ushbu murakkab tizimni shakllantirish jamiyatning rivojlanishiga sabab bo'libgina qolmasdan, balki shaxs, jamiyat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning samarali kechishini ta'minlaydi. Siyosiy tizimning qonuniyligini yanada oshiradi. Bu borada Islom Karimovning "...tinchlik va barqarorlik bo'lmasa, ilm-fan sohasida hech qanday o'sish, taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. Qayerda tinchlik va barqarorlik bo'lsagina ilm-fan markazlari, akademiyalar, oliy o'quv yurtlari paydo bo'ladi. Eng asosiysi, ta'lim-tarbiya ravnaq topib, unga qiziqish, e'tibor kuchayadi. Tinchlik-barqarorlik bo'lgan joydagina odamlar o'qib-o'rganishni, har tomonlama rivojlanishni istaydi. Odamlar kechasi xotirjam uxlab, ertalab osoyishta uyg'onadigan, muammo yoki ofatlarga duch kelmasligini bilgan taqdiridagini shunday bo'ladi. Bu haqiqat ko'p asrlar davomida o'z tasdig'ini topgan va ishonchim komilki, bugun bu mavzuda gapirishning o'zi ortiqcha"<sup>1</sup> degan qarashlari barqarorlikning muhim qirralari va ularning ijtimoiy negizini ochib bermoqda.

Ma'lumki, osoyishtalik, tinchlikni saqlash, tinch-totuv yashash – o'zbek xalqining betakror qadriyati, burchi hisoblangan. Bu burch ota-bobolarimizning tinchlik uchun olib borgan kurashlari evaziga bizgacha meros bo'lib kelayotgan oliy qadriyat hisoblangan. O'zbekiston tinchlik-ijtimoiy maznun kasb etib kelgan. Chunki, tinchlik O'zbek xalqida "Oila – Mahalla – Davlat – Jamiyat" so'ngra "Mintaqaviy – Xalqaro – Global" munosabatlar tiimida o'aro uyg'unlashib "O'zbek xalqining tinchlik falsafasini" tashkil etadi. Albatta, bu jarayonning amalga oshishi "siyosiy yetakchi" bilan o'zaro bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Sharqda "Rahbar odam – yurtning otasi", degan ibora bor", deya ta'kidlaganida, jamiyatda yetakchining o'rni yuksak ekanligini nazarda tutgan. Bugungi tajovuzlar bilan to'lib-toshgab tahdidli davrda xavfsizlik va barqarorlik shartlarini puxta egallagan rahbar, har qanday tashqi ta'sirning, mafkuraviy

tajovuzning mazmun-mihiyatini tezda anglab oladi va jamoani to'g'ri boshlaydi.

Bugungi kunda axborot tizimlarining jadal ishlashi g'oyaviy-mafkuraviy kurashlarning kuchayishiga zamin yaratmoqda. XXI asrga kelib axborotning qudratli qurolga aylanishi, afsuski, ayrim hollarda g'arazli va buzg'unchi foydalanishga intilish tobora kuchayib bormoqda. Globallashuv sharoitida dunyo miqyosida OAV, matbuot, internetdagi ijtimoiy tarmoqlar orqali jamiyat va davlat ahamiyatiga molik ko'plab axborotlar tarqatilgan. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov "Hozirgi vaqtda dunyoda kim hukmronlik qilyapti, deb so'rasangiz, kim axborot-kommunikatsiya tizimiga egalik qilayotgan bo'lsa, o'sha hukmronlik qilayapti deb javob bergan bo'lardim. Bugun biz juda murakkab sharoitda hayot kechirmoqdamiz. Hozirgi vaqtda dunyoda bo'layotgan turli voqea-hodisalar, tez o'zgarayotgan hayot jarayonlari ertaga qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligini oldindan tasavvur qilish qiyin."

Bugungi kunga kelib, dunyoning ayrim siyosiy markazlari axborot hurujlarini amalga oshirish orqali rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon axborot makoniga chiqish jarayonini izdan chiqarishga harakat qilmoqda. Axborot hurujlarini uyushtirish oqibatida millatning azaldan shakllangan qadriyatlarini, milliy madaniyat va ma'naviyatga zarba berish orqali mamlakat miqyosida amaldagi boshqaruv tizimiga nisbatan norozichilik kayfiyatlarini keltirib chiqarish natijasida o'zaro diniy, milliy va etnik ziddiyatlar tufayli barqarorlik izdan chiqishi uchun zamin yaratishini anglash kerak. Mamlakatimizda fuqarolarimiz qalbi va ongida o'zida g'arazli va buzg'unchi g'oyalarni namoyon etuvchi axborot hurujlarini oldini olishda quyidagi omilarga alohida e'tibor qaratishni taqozo etdi:

- Milliy manfaatlarimiz, hayot tarzimizga mutlaqo zid bo'lgan o'zida zararli g'oyalar, mafkuraviy hurujlarni namoyon etuvchi axborot hurujlarining mohiyatini anglash orqali uning asl mohiyatini ochib berish;

-milliylikimizga yot bo'lgan yoshlarimiz ongi, qalbini egallashga qaratilgan axborot hurujlari tahdidiga qarshi jamiyatning barcha qatlamlarini mafkuraviy qurollantirish va ilmiy qilish;

-miliy ma'naviyatimizga rahna solish orqali miliy o'zlikni anglashga putur yetkazuvchi axborot hurujlariga aslo yo'l qo'ymaslik;

-yurtimizga chetdan "o'zgacha"madaniyatni targ'ib etuvchi axborot hurujlarining turli xil tahdidlaridan asrash, unga qarshi kurashda uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarini, nodavlat, notijorat tashkilotlarini bir maqsad yo'lida birlashtirish. Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda axborot huruji va uning oldini olish hamda bartaraf etishning eng samarali usuli sifati, avvalo, yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni mumtazam ravishda o'tkazish, ularni doimo ogohlikka davat etish orqali yurtimizning istiqbolli reja va maqsadlarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Yurtimizda ommaviy axborot vositalarining o'ni beqiyosdir. Chunki har qanday ijtimoiy-siyosiy jamiyatimizdagi o'zgarishlarning dastlabki darakchisi shular hisoblanadi. Xalqimiz endilikda ommaviy axborot vositalari orqali o'z fikrini emin-erkin bayon etib, bunga ishona boshlashmoqda. Ommaviy axborot vositalarida jonli efirlar, real voqealar, har qanday masalaning ildizgacha bo'lgan jarayonlar o'rganilgan hayotiy haqiqatlar aks etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 3-avgust kuni milliy madaniyatimiz namoyondalari, ijod ahli bilan uchrashuvi ommaviy axborot vositalari sohasida yangi bosqich, davrni boshlab bergan edi. Bugungi shiddatli o'zgarishlar davrida yolg'on xabar berish, muammolarni xaspo'shlash,

balandparvoz gaplar bilan muammolarni bezab ko'rsatish, kimgadir yoqish maqsadida ko'rsatuvlar tayyorlash davlatimiz rahbari ko'p bora ta'kidlaganidek, kelajagimizga qilingan eng katta xiyonat bo'ladi. Har qanday jamiyatda OAVga to'rtinchi hokimiyat maqomini bermaslikka intilish mamlakatda illatlarning, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi barqarorlikning susayib ketishiga zamin yaratmoqda. OAV bo'lgan, faoliyatida to'siqlar qo'yilgan joyda illatlar avj olmoqda. Biz bugun shu to'siqlarni bartaraf etmasak, kelajak avlodlarimiz shu illatlarning qurboni bo'lishi hech gap emas, aslida. Imsizlik, ma'naviy qashshoqlikning avj olsa yosh avlodga Vatanni ulug'lash, tuprog'ini avaylash, yurt farovonligi yo'lida jon fidolik qilish haqida qarashlarni tushuntira olmaymiz. Shunday ekan, yurtimizdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka erishishda, har sohada oshkoralik, adolatlilikni qaror toptirish uchun – Ommaviy axborot vositalarining faoliyati nihoyatda kuchli ahamiyatga ega. Bu soha vakillarining eng sharaflari va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan hisoblangan.

Jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir vaqtda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga tayyor bo'lish matbuot, axborot, media tarmoqlaridan, shuningdek, televideniya va radio sohasida xizmat qilishga o'zini bag'ishlagan yetuk mutaxassis bo'lishga ahd qilgan va bu sohada o'z kelajagini ko'rmoqchi bo'lgan ommaviy axborot vositalari xodimlarining faoliyat mezoniga aylanishi lozim. 2018-yilning 27-iyun kuni "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni" munosabati bilan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'zining tadbirida quyidagilarni ta'kidladi, "...Eng muhim, soha rivojida yana shunday miqdor o'zgarishlari bilan birga sifat o'zgarishlari ham yuz bergan. Buning tasdig'ini milliy media maydonimizda fuqarolik jamiyatining muhim sharti bo'lgan nodavlat ommaviy axborot vositalari tarmog'i kengayib samarali faoliyat ko'rsatayotgani, internet jurnalistikasi jadal rivojlanib borayotgani misolida yaqqol ko'rimiz lozim. Dunyo olimlari tomonidan hozirgi davrgacha "etnos" va "millat" tushunchalarining metodologik asoslariga oid ko'plab nazariyalar va konsepsiyalar yaratilgan bo'lsa-da, ularni etnik fenomenni anglash nuqtai nazardan uch guruhga – primordialistik, instrumentalistik va konstruktiv yondashuvlarga ajratish mumkin. Millat tushunchasini ta'riflashda uning ma'naviy jihatlatiga ko'proq e'tibor berilgan, vaholanki, millat ijtimoiy borliqning o'ziga xos murakkab tomonlarini aks ettiruvchi fenomen hisoblanadi.<sup>2</sup> "Millat "murakkab harakterga ega bo'lgan etnik birlik hisoblanadi. Shuning uchununga ta'rif berishda adabiyotlarimizda aniqlik yo'q. "Millat", Milliylik tushunchalari bizga arablar tomonidan VII asrdan boshlab kirib kelgan. "Millat" tushunchasi keng ma'noda qo'llanilib, bir necha ma'noni beradi: 1) din, diniy jamoa; 2) ummat, ma'lum dinga e'tiqod qiluvchilar jamoasi; 3) xalq, millat kabi ma'nolarni anglatadi.

## REFERENCES

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O'zbekiston, 1999. 19
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 51 b.
3. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. -T.: O'zbekiston, 2000. -127 b.
4. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. –T.: "O'zbekiston", 1998 -23 b.
5. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy

- irodamizga bog'liq. -T.: O'zbekiston, 2004. -B. 241.
6. Karimov I.A. O'zbekiston:milliy istiqloq,iqtisod ,siyosat,mafкура.-T.: O'zbekiston,1996. - B.363.
  7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid,barqarorlik shartlari vataraqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston,1997.-141-142 b
  8. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti //Hidoyat jurnali.2016 . - B. 6.
  9. 20.Odilqoriyev X.Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. –Toshkent. Sharq, 2002 -268 b.
  10. Jo'rayev N. Xalqaro terrorizm va mintaqaviy mojarolar. -Toshkent: Ma'naviyat, 2000. - 304 b.
  11. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOYIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
  12. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. *Modern Science and Research*, 2(12), 722-727.
  13. Sadullayev Umidjon Shokir O'g'li. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25–30. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-05>
  14. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li. (2023). The History of the Creation and Formation of the Neighborhood. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 480–485. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2142>
  15. O'gli, S. U. S. (2023). ELUCIDATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF BUKHARA GUZARS IN OA SUKHAREVA AND HER STUDIES. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 30-35.
  16. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. *Modern Science and Research*, 2(12), 722–727.
  17. Shokir o'gli, S. U. (2023). The Essence of State Policy on Youth in New Uzbekistan. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 554-559.
  18. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN RAISING A SPIRITUALLY MATURE GENERATION. *Modern Science and Research*, 2(10), 488-493.
  19. Sadullayev, U. (2023). O'zbekistonda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor: mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning roli. In *Oriental Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 551-556). OOO «SupportScience».
  20. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(10), 755-757.
  21. Shokir o'gli, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. *Journal of new century innovations*, 35(1), 79-80.
  22. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 132-135.

23. Bafoeva, R. (2023). The concept of family in English, Russian and Uzbek proverbs. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 651–654. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2279>
24. Rokhila Bafoeva 2023. The Concept of Education in English and Uzbek Proverbs. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*. 1, 9 (Nov. 2023), 292–296.
25. Bafoeva, R. (2023). NEW METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Modern Science and Research*, 2(10), 58-63.
26. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2022). NATIONAL AND CULTURAL PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES AND THEIR UNIVERSAL FEATURES. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 500-503.
27. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARING GENDER XUSUSIYATLARI. *World of Science*, 6(5), 167-169.
28. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI VA ULARNING O'RGANILGANLIK DARAJASI. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(14), 74-76.
29. Bafoeva, R. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING SHAKLLANISH VA O'RGANILISH MASALALARI. *Научный Фокус*, 1(3), 29-31.
30. Bafoeva, R. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING KOGNITIV TAHLILI Ingliz va ozbek maqollari tizimlari haqida gap ketganda ularning mohiyati bir-biridan ajralib turishi aniq bo'ladi, chunki ular turli xil tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda rivojlangan, va bu maqoll. *World of Science*, 6(6), 207-211.
31. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2023). LINGUISTIC AND CULTURAL ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK PROVERBS. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 227-230.
32. Bafoeva, R. (2023). THE IMPORTANCE OF INTERACTIVE GAMES IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES PROCESS. *Modern Science and Research*, 2(10), 510-512.
33. 22. Muxamedovna, G. M. (2023). INNOVATSION TALIM-BUYUK KELAJAK POYDEVORI. *World scientific research journal*, 17(1), 74-76.
34. Muxamedovna, G. M. (2023). UCHINCHI RENESANS DAVRIDA AJDODLARIMIZ MEROSINI ORGANISH ORQALI INTEGRATSION TA'LIMNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 22(1), 35-38.
35. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEKANIZMLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 12-14.
36. Gadayeva, . M. . (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459–464. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25292>

37. Gadayeva, . M. . (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459–464. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25292>
38. Gadayeva Mohigul Muxamedovna. (2023). HISTORY OF PATRIOTIC WOMEN . *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 69–75.
39. Berdiyeva, S. (2023). BENEFITS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES THROUGH ROLE-PLAYING ACTIVITIES. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 2(10), 723–729. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10034991>
40. Berdiyeva, S. (2023). A STORY-BASED APPROACH IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE. *Modern Science and Research*, 2(10), 262-266.
41. Berdiyeva, S. (2023). THE IMPORTANCE OF ROLE PLAYING ACTIVITIES IN IMPROVING LEARNERS’LANGUAGE SKILLS. *Modern Science and Research*, 2(9), 75-78.
42. Utkirovna, B. S. (2023). Characteristics of the Works of Charles Dickens. *European Science Methodical Journal*, 1(3), 24-28.
43. Utkerovna, B. S. (2023). SHUM BOLA ASARINING TARJIMASIDA TARJIMON MAHORATI. "DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).
44. Муродова, Д. А. (2022). ЦВЕТОВАЯ ГАММА В ЛИРИКЕ А. ПУШКИНА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 432-434.
45. Murodova, D. (2023). THE CONCEPT OF THE WORDS "GENEROSITY AND COWARDICE" IN THE LAK LANGUAGES. *Modern Science and Research*, 2(6), 1147–1149.
46. Муродова Д. (2023). КОНЦЕПЦИЯ СЛОВ "ВЕЛИКОДУШИЕ И ТРУСОСТЬ" В ЛАКСКИХ ЯЗЫКАХ. *Современная наука и исследования*, 2(6), 1147-1149
47. Муродова, Д. (2023, April). АРАБСКИЕ СЛОВА ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education* (Vol. 2, No. 2, pp. 156-158).
48. Murodova, D. (2023). PROBLEMS OF RESEARCH OF VERBAL CONSTRUCTIONS WITH DEPENDENT OBJECT IN THE RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES. *Modern Science and Research*, 2(3), 232–235. Retrieved from <https://inlib>
49. Bafoeva, R. (2023). NEW METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Modern Science and Research*, 2(10), 58-63.
50. Fayzullayeva, N. S. qizi . (2023). Theoretical Views on the Use of the Term "Concept" in Cognitive Linguistics. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(5), 27–31. Retrieved from <https://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/1685>
51. Fayzullayeva, N. (2024). "AMERICAN DREAM" IN WALT WITHMAN’S POEMS. *Modern Science and Research*, 3(1), 220–224. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27940>



52. Sur'at qizi Fayzullayeva, N., & Kilicheva, M. R. (2022). UOLT UILTMAN NASRIDA "AMERIKA ORZUSI" KONSEPTI. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(8), 574-576.
53. Fayzullayeva, N. (2023). THE IMPROVING OF LISTENING SKILL. *Modern Science and Research*, 2(10), 272–276. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25086>
54. Fayzullayeva, N. (2023). THE CONCEPT OF THE AMERICAN DREAM AND WALT WHITMAN. *Solution of social problems in management and economy*, 2(11), 137-142.
55. Fayzullayeva, N. (2023). THE ROLE OF THE AMERICAN DREAM IN UOLT WILTMAN'S POEMS. *Modern Science and Research*, 2(10), 714–718. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24676>
56. Fayzullayeva, N. (2023). USAGE OF THE FLORA IN THE EARLY MODERN ENGLISH POETRY. *Modern Science and Research*, 2(9), 36–39. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24078>